

"KOXLEAR IMPLANTATSIYA QILINGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR"

Azimova Zulfiya Murodjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti logopediya
yo'nalishi magistratura bosqichi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Hozirgi kundagi koxlear implantatsiyaning ahamiyati eshitishda og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish va nutq rivojlanishini tiklashda juda katta o'rin tutadi. Ushbu maqolada implantatsiyadan o'tgan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonida uchraydigan asosiy muammolar, o'quv faoliyatini tashkil etishda paydo bo'ladigan qiyinchiliklar hamda ijtimoiy moslashuv jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, surdopedagogik yondashuv, logopedik qo'llab-quvvatlash va ota-onalar bilan hamkorlik orqali muammolarni yumshatish bo'yicha samarali metodlar tavsiya etiladi. Maqola koxlear implantatsiya qilingan bolalarning ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Koxlear implantatsiya, eshitish nuqsoni, bolalar tarbiyasi, nutq rivojlanishi, surdopedagogik yondashuv, logopedik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, ta'lim jarayoni.

Аннотация: Современная значимость кохлеарной имплантации играет важную роль в восстановлении слуха и речи у детей с тяжёлыми нарушениями слуха. В статье рассматриваются основные проблемы, возникающие у детей после имплантации в процессе обучения, включая трудности в учебной деятельности и социальной адаптации. Также предлагаются эффективные методы их смягчения через сурдопедагогический подход, логопедическую поддержку и сотрудничество с родителями. Статья содержит научно-практические рекомендации по улучшению обучения детей с кохлеарными имплантами.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, дети с нарушением слуха, слуховое восприятие, развитие речи, сурдопедагогический подход, логопедическая поддержка, инклюзивное образование, социальная адаптация, коррекционная работа, реабилитация

Annotation: The importance of cochlear implantation today plays a key role in restoring hearing and speech development in children with severe hearing loss. This article analyzes the main challenges faced by implanted children in the educational process, including difficulties in learning activities and social adaptation. It also offers effective methods for reducing these problems through surdopedagogical approaches, speech therapy support, and cooperation with parents. The article provides scientific and practical recommendations to improve the education of children with cochlear implants.

Key words: Cochlear implantation, hearing impairment, child development, speech development, surdopedagogical approach, speech therapy support, social adaptation, educational process.

KIRISH.

So'nggi yillarda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun bir qator sharoitlar yaratilganini ko'rish mumkin.

Jumladan, umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim sinflarining joriy etilishi mazkur toifadagi bolalarning ta'lim jarayoniga to'laqonli jalb etilishini ta'minlamoqda. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarida logoped, defektolog va psixolog kabi mutaxassislar faoliyatining yo'lga qo'yilgani korreksion-pedagogik yordam sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Maktablarning infratuzilmasini moslashtirish — panduslar, maxsus o'quv vositalari va qo'shimcha texnik jihozlar bilan ta'minlash ishlari esa bolalarning ta'lim muhitiga erkin integratsiyalashuviga imkon yaratmoqda. Shuningdek ularning ta'lim tarbiya olishlari va rehabilitatsiya jihozlari bilan ta'minlanishi bilan bog'liq bir qancha qaror va farmoyishlar qabul qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli qarorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularning ta'lim olishlarini tashkil etishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarni bartaraf etishga oid choralar ko'rilmogda. Shuni ta'kidlash joizki mazkur qarorga muvofiq yaratilgan "Zamin" fondi "Eshitishda nuqsoni bo'lgan 5 yoshdan katta shaxslarni davolash va rehabilitatsiya qilish" loyihasini yo'lga qo'ydi.

Mazkur islohotlar alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning huquq va imkoniyatlarini ta'minlashda muhim bosqich bo'lib, ularning jamiyat hayotiga faol integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Ta'lim tizimidagi ushbu o'zgarishlar natijasida korreksion-pedagogik yordamning qamrovi kengayib, bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlariga mos ta'lim olishiga zamin yaratildi.

Shu bilan birga, rehabilitatsiya xizmatlarining takomillashuvi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarining kuchayishi mazkur sohada samaradorlikni oshirmogda. Umuman olganda, oxirgi yillarda amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun yanada qulay, inklyuziv va barqaror ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM.

So'nggi davr mobaynida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ish olib borishda koxlear implantatsiya eng samarali yo'l ekanligini ma'lum.Koxlear implantatsiya – eshitmaydigan (kar, zaif eshituvchi) bolalar eshituvchilar dunyosiga kirish va dunyoni ovozlari, tovushlar orqali idrok imkoniyatini yaratuvchi xozirgi kunning eng samarali usullari hisoblanadi.

Bunda bolalarning ovozlari, musiqa, nutq va boshqa tovushlarni eshitishi va o'zini jamiyatda, ijtimoiy hayotda erkin idora qilish imkoniga ega bo'lishiga misli ko'rilmagan yordam beruvchi bu vosita fan va texnika rivojidadagi katta ahamiyatga ega kashfiyotdir.

Koxlear implantatsiya qilingan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Implantatsiyadan so'ng bolalarning eshitish qobiliyati asta-sekin tiklanadi, bu esa nutq va til ko'nikmalarining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu

jarayonda bolaning atrof-muhitdagi tovushlarni farqlash, musiqa va nutqni eshitish qobiliyati oshadi, natijada o'quv faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi

Shunga qaramasdan, koxlear implantatsiya qilingan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonida bir qator murakkabliklar ham mavjud. Avvalo, implantning to'g'ri ishlashi ko'p jihatdan texnik sozlamalarga bog'liq bo'lib, protsessorning nosozligi yoki tovush sozlamalarining yetarli darajada moslashtirilmaganligi bolaning eshitish sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oilaning pedagogik va psixologik tayyorgarligi yetarli bo'lmaganda, reabilitatsiya jarayoni izchil kechmaydi, uy sharoitida muntazam mashg'ulotlarning yo'qligi esa natijadorlikni pasaytiradi. Bundan tashqari, implantatsiya qilingan bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi ko'pincha murakkab kechadi: ular tengdoshlari bilan muloqotda o'ziga ishonchsizlik hissini boshdan kechirishi yoki o'quv muhitiga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Koxlear implantning sun'iy eshitish mexanizmiga asoslangani sababli, ayniqsa shovqinli muhitda nutqni ajratish jarayoni murakkablashib, bola dars mazmunini to'liq anglashda qo'shimcha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida pedagoglarning koxlear implantatsiya qilingan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus metodik tayyorgarlikka ega emasligi darsning samaradorligini kamaytiradi. O'quv dasturlarining yetarlicha moslashtirilmaganligi esa bunday bolalarning individual ehtiyojlarini to'liq qamrab ololmaydi.

Ba'zi hollarda sinf xonalarida akustik sharoitning talabga javob bermasligi, ya'ni aks-sado yoki ortiqcha shovqinning mavjudligi eshitish apparati orqali qabul qilinadigan tovush sifatini pasaytiradi.

Natijada, bola o'qituvchining nutqini farqlashda qiynalib, mavzuni o'zlashtirish sur'ati sekinlashadi. Bundan tashqari, reabilitatsiya xizmatlarining uzluksizligi ta'minlanmagan holatlarda bolaning nutqiy rivojlanish dinamikasida barqarorlik kuzatilmaydi. Shu jihatlar implantatsiya qilingan bolalar ta'limida kompleks pedagogik yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Koxlear implantatsiya qilingan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud muammolarni samarali bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, implantlarning texnik holatini muntazam nazorat qilish, protsessor va batareyalarni vaqtida almashtirish hamda tovush sozlamalarini individual xususiyatlarga moslashtirish bolalarning eshitish qobiliyatini maksimal darajada ta'minlaydi.

Shu bilan birga, ota-onalarni reabilitatsiya jarayoni, uy sharoitida mashg'ulotlar va bolani qo'llab-quvvatlash usullari bilan tanishtirish, oilaning faolligini oshiradi va rivojlanish jarayonining izchilligini ta'minlaydi. Pedagoglar va mutaxassislarni maxsus tayyorlash ham muhim yechimlardan biridir.

Logoped-surdopedagoglar va umumta'lim o'qituvchilari uchun treninglar, seminarlar va metodik kurslar tashkil etish orqali implantatsiya qilingan bolalarning individual ta'lim ehtiyojlariga mos dars strategiyalarini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, sinf xonalarini akustik jihatdan optimallashtirish, shovqinni kamaytirish, vizual va maxsus ta'lim vositalari bilan ta'minlash bolalarning dars mazmunini to'liq anglashiga yordam beradi.

Reabilitatsiya jarayonining uzluksizligini ta'minlash ham alohida ahamiyatga ega. Bolalar muntazam ravishda audiolog, logoped va psixolog nazorati ostida bo'lishi, uy sharoitida individual mashg'ulotlarni davom ettirish orqali nutq va eshitish rivojlanishida barqaror natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tadbirlari, masalan, tengdoshlari bilan muloqot mashg'ulotlarini tashkil etish va motivatsion yondashuvni qo'llash, bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni inklyuziv muhitga samarali moslashishiga yordam beradi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan choralar koxlear implantatsiya qilingan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali, individual ehtiyojlarga mos va ijtimoiy jihatdan integratsiyalashgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat bolalarning rivojlanishini ta'minlaydi, balki inklyuziv ta'lim tizimining sifatini yanada oshirishga imkon yaratadi.

Muammolarni kamaytirish va bolalarning rivojlanishini ta'minlash uchun surdopedagogik yondashuvlar qo'llaniladi. Koxlear implantatsiya qilingan bolalarda surdopedagogik yondashuvlar reabilitatsiya jarayonini individual tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda bolalarning eshitish darajasi, nutq va til ko'nikmalari, kognitiv rivojlanishi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi. Auditiv-verbal terapiya bolalarni ovozlarni tanish, farqlash va nutq mashqlari orqali kommunikatsiya qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Multisensor yondashuvlar vizual va motor ko'nikmalar bilan integratsiyalashgan holda eshitish qobiliyatini mustahkamlash va tovushlarni idrok etish ko'nikmalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim yondashuvi esa bolalarni tengdoshlar bilan birgalikda o'quv jarayoniga jalb qilish, ijtimoiy interaktsiya ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashishini ta'minlashga qaratilgan.

Reabilitatsiya muolajalari auditiv mashqlar orqali tovushlarni farqlash va nutqni shakllantirishni, logopedik mashqlar yordamida talaffuzni yaxshilashni, kommunikatsion ko'nikmalarni mustahkamlashni, uy sharoitida ota-onalar bilan muntazam mashqlarni amalga oshirishni, shuningdek, interaktiv o'quv dasturlari, audio-kitoblar, eshitish qo'llanmalari va boshqa zamonaviy texnologik vositalarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Bu esa bolalarning nutq, eshitish, kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga va ularni ta'lim jarayonida hamda jamiyatda mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, surdopedagogik yondashuvlar va reabilitatsiya jarayonida bolalarning individual ehtiyojlariga doimo e'tibor qaratilishi, ota-ona va pedagoglarning faol hamkorligi hamda zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi koxlear implantatsiya samaradorligini maksimal darajada oshirishga yordam beradi.

Bu yondashuvlar bolaga ovozlarni farqlashni o'rgatish, nutq mashqlarini tizimli o'tkazish va eshitish qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, logopedik qo'llab-quvvatlash bolalarning nutqini shakllantirish va talaffuzni to'g'rilashga yordam beradi. Ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik ham katta ahamiyatga ega.

Ularning bolaga beradigan muntazam yordam, uy sharoitida mashqlarni bajarish va ijtimoiy muhitga moslashuvdagi qo'llab-quvvatlash implantatsiya samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimi va davlat tomonidan tashkil etilgan qo'llab-quvvatlash dasturlari bolalarning ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, implantatsiya qilingan bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga e'tibor qaratish zarur. Bolalar do'stlari bilan muloqot qilish, o'yinlarda ishtirok etish va jamoaviy faoliyatlarda qatnashish orqali o'zini jamiyatda qulay his qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, texnologik vositalar, masalan, interaktiv o'quv dasturlari va eshitish qo'llanmalarini integratsiya qilish, bolalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bolalarning rivojlanish jarayoni individual tarzda baholanadi.

Har bir bolaning eshitish qobiliyati, nutq rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi farqlanadi, shuning uchun surdopedagogik va logopedik yondashuvlar individual reja asosida tuzilishi kerak. Shu yo'l bilan koxlear implantatsiya qilingan bolalar nafaqat ta'lim jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniga ega bo'lishadi

XULOSA.

Koxlear implantatsiya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun zamonaviy va samarali tibbiy yondashuv hisoblanadi. Ushbu qurilma bolalarning nutq va til ko'nikmalarini rivojlantirish, atrof-muhitdagi tovushlarni farqlash va ijtimoiy muhitga integratsiya bo'lish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, implantatsiya bolaning o'zini erkin ifoda etish, jamiyatdagi faoliyatda ishtirok etish va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini mustahkamlaydi. Biroq, koxlear implantatsiya o'zi yetarli emas; bolalarning rivojlanishi uchun surdopedagogik yondashuvlar, logopedik qo'llab-quvvatlash va ota-onalar bilan faol hamkorlik zarur.

Ushbu yondashuvlar bolalarning nutqini shakllantirish, talaffuzni to'g'rilash, eshitish qobiliyatini mustahkamlash va o'quv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Maqolada ta'kidlanganidek, har bir bolaning rivojlanish jarayoni individualdir. Shuning uchun pedagogik va logopedik metodlar shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi muhimdir. Shu yo'l bilan implantatsiya qilingan bolalar o'quv jarayonida samarali faoliyat yuritish, tengdoshlar bilan muloqot qilish va jamiyatga integratsiyalashish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, davlat tomonidan tashkil etilgan qo'llab-quvvatlash dasturlari, inklyuziv ta'lim tizimi va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi bolalarning ta'lim va ijtimoiy rivojlanishini yanada kuchaytiradi. Koxlear implantatsiya qilingan bolalarga beriladigan kompleks yordam ularning nafaqat nutq va eshitish qobiliyatini, balki umumiy kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, koxlear implantatsiya va unga qo'shilgan pedagogik, logopedik hamda ota-ona hamkorligi bolalarning rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun asosiy vositalardan biri bo'lib, ularning kelajakdagi ta'lim va hayot faoliyatidagi muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Ushbu kompleks yondashuv eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarning nafaqat o'qish va nutq, balki ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдухалилова, М. И. (2023). Кохлеар имплантация у детей: особенности ранней работы. Журнал педагогических исследований, 12(3), 45–53.
2. Нартаева, С., & Мамаражабова, З. (2022). Особенности слухо-речевой деятельности детей с кохлеарными имплантами. Проблемы специального образования, 8(2), 33–41.
3. Абдуллаева, Г. (2024). Инклюзивное образование для детей с кохлеарной имплантацией. Материалы международной конференции по сурдопедагогике, Ташкент, 112–118.
4. Иноятова, Ф. И., & др. (2023). Организация высокоспециализированной помощи детям с нарушением слуха: 9-летний опыт кохлеарной имплантации в Узбекистане. Вестник медицины и образования, 15(4), 22–31.
5. Абдухалилова, М. И. (2021). Реабилитация детей после кохлеарной имплантации: педагогические аспекты. Журнал современной педагогики, 5(1), 10–18.
6. Нартаева, С., & Мамаражабова, З. (2020). Кохлеар имплантация и коррекционная работа с детьми в Узбекистане. Проблемы специальной педагогики и логопедии, 7(3), 55–62.